

**“TASDIQLAYMAN”**  
**Adliya organlari va muassasalarida**  
**axborot-kommunikatsiya**  
**texnologiyalarini rivojlantirish**  
**markazi davlat**  
**muassasasi direktori**



K. Xo‘jayev

**TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ**  
**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot**  
**portaliga e'lon joylashtirish to'g'risida**

2022 yil 27 07

Toshkent sh.

Adliya vazirligining ikkita binosi orasida **Optik tolali kabel o‘tkazish bo‘yicha** masalasini ko'rib chiqish va e'lon matnini Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot**  
**portaliga joylashtiriladigan tanlov shartlari**  
**va hujjatlari bo'yicha e'lon matni**

**Tanlovga qo'yilayotgan xizmat turi:**

Optik tolali kabel o‘tkazish bo‘yicha

**Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:**

1. "Buyurtmachi" tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish.
2. Tegishli litsenziya va guvohnomaga ega bo'lgan va ushbu sohada kamida 3 yillik tajriba hamda o'z texnik bazasiga ega bo'lish.
3. Belgilangan vazifalarni g'olib chiqqan tashkilot ("Bajaruvchi") tomonidan 20 ish kuni davomida to'liq tayyorlab "Buyurtmachi"ga topshirish.
4. Tanlov ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish jarayonida korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik xususida ariza taqdim etish.
5. Optik tolali kabel o‘tkazish bo‘yicha manzillari: Adliya vazirligi Markaziy apparati binosi (Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko‘chasi 5-uy) va Adliya vazirligi Davlat xizmatlari departamenti binosi (Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi 16A-uy) o‘rtasida.
6. Kabel aloqa liniyasi Kanalizatsiya orqali kabel yotqizish:  
Sayilgoh ko'chadagi 5-uydan, A. Temur maydoni, mavjud marshrut bo'ylab Amir Temur shoh ko‘chasi 16A-uyda joylashgan ob'ektgacha;

Loyihalashtirilgan aloqa kabelini yotqizish jarayonida, agar u "TShTT" filialining kabel trassasidan o'tmasa, u holda boshqa trassadan o'tkazish (tashkil qilish) "Bajaruvchi" tashkilot hisobidan amalga oshiriladi.

Mavjud kabel trassasidan o'tkazilgan taqdirda, mazkur marshrut bo'yicha ushbu trassada joylashgan mavjud kabel aloqa liniyalarining to'liq xavfsizligini ta'minlash zarur.

Montaj ishlari jarayonida mavjud aloqa liniyalariga zarar yetkazilgan taqdirda, uni bartaraf etish, zararni qoplash qisqa muddatlarda "Bajaruvchi" tashkilot hisobidan amalga oshiriladi.

7. Loyiha hujjatlarini (kabel kanallarini yotqizish, kabelni tortish sxemasi, kabel kartalari ma'lumotlar) "TShTT" filiali va barcha manfaatdor tashkilotlar bilan muvofiqlashtirish (kelishish, ekspertizadan o'tkazish) zarur.

8. Ishlarni bajarish boshlanishidan oldin "TShTT" filialning texnik kengashidan yozma ruxsat olinishi zarur.

| № | Бажарилувчи ишлар (хизматлар)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | Нархи       |
|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 1 | Adliya vazirligi Markaziy apparati binosi – Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi 5-uy va Adliya vazirligi Davlat xizmatlari departamenti binosi – Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi 16A-uy o'rtasida 48 tolali (48 cores) Optik tolali kabel o'tkazish. Barcha materiallar va jihozlar "Bajaruvchi" tomonidan yetkazib beriladi. | 155 млн сўм |

I-toifali ish  
yurituvchi kotib

Bo'lim boshlig'i  
(komissiya raisi)

Bo'lim boshlig'i

Bo'lim boshlig'i

Bo'lim boshlig'i

Yetakchi buxgalter

  
M. Toyliboyev

  
J. Baltabaev

A. Muxamedov

A. Karimov

  
N. Yusupaliyev

  
I. Qurbonov